

METHODOLOGY OF MILITARY-PATRIOTIC TEACHING IN GENERAL SECONDARY EDUCATION AND SPECIALIZED SCHOOLS

Turayev Jakhongir Anvarovich

Deputy Head of the Faculty of Military Education, Pedagogical Institute, Bukhara State University

Bugungi kunda talaba-yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash davlat siyosati darajaga ko'tarilgan. Shu nuqtayi nazardan harbiy vatanparvarlik tushunchasining mazmun-mohiyatini bilish uchun avvalambor, vatanparvarlik o'zi nima, u qanaqa tushuncha yoki qanaqa fazilat ekanligini aniqlashtirib olishimiz kerak. Vatanparvarlik – qadimiy tushuncha bo'lib, uning asosi yunon tilidan («pater») olingan, ya'ni vatan so'zidan olingan. Vatanparvarlik deganda, Vatanga muhabbat, uning o'tmishi va hozirgi kuni uchun g'ururlanish mazmunidagi ma'naviy va siyosiy tamoyil, ijtimoiy hissiyot tushuniladi. Yoshlarda vatanparvarlik hissi avvalambor oiladan, maktabgacha ta'lim yoshidan singdirila boshlanadi. Keyinchalik umumiy o'rta ta'lim muassasalarida, shakllantirilib, bu jarayon oliy ta'lim muassasalarida rivojlantiriladi. Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida asosan Vatanni tabiiy va ma'naviy muhit sifatida aks ettiruvchi qadriyatlar interiorizatsiyasi, ya'ni vatanparvarlikning hissiy komponentlari tashkil topadi.

Shu mazmunda «vatanparvarlik» tushunchasini aksiologik va prakseologik nuqtayi nazardan o'rganish konseptual ahamiyatga ega. Vatanparvarlik ko'p qirrali xususiyatlarga ega: davlat (mamlakatiga, mintaqaga, shahar, qishloq, tuman, viloyati, o'lkasi, respublikasi) nuqtayi nazaridan yo'naltiruvchi (siyosiy, tarixiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ekologik va boshqalar).

Aksiologik darajada vatanparvarlik ongda Vatan obrazi shakllanadi, uning muhim elementi madaniyat hisoblanadi. Shunday qilib, Vatan - boshlang'ich nuqta, vatanparvarlik obyektidir. U ijtimoiy subyekt uchun ijtimoiy-hissiy aloqada bo'ladi. Bu yerda ma'naviy omil muhim hisoblanadi.

Vatanparvarlik haqidagi dunyo allomalarining hikmatli so'zlari muhim ahamiyatga ega. Jumladan, Cho'lda o'rmalab yurgan jonivorlar ham tug'ilshidanoq o'z makonlarini biladilar, havoda uchuvchi qushlar ham, dengiz va daryolardagi baliqlar ham o'z oshyonlarini his qiladilar, hatto bolari va shunga o'xshashlar ham o'z uyalarini muhofaza qiladilar, – shuning kabi odamlar ham qaerda tug'ilib parvarish topsalar, – o'sha joyga cheksiz mehr qo'ygan bo'ladilar (F. Skorina). Saxovatning eng buyuk jasurliklari vatanga muhabbat tufayli yuzaga kelgan (J.J. Russo), Vatanparvar – o'z vatani kamoloti yo'lida, o'z xalqiga muhabbati tufayli ezguliklari tugul, jonini ham ayamaydigan insondir, xalqqa va vatani ozodligi, farovonligi uchun o'zini qurbon qiluvchi insondir (M. Oxundov). Vatanparvarlikning tarbiyaviy ahamiyati juda katta, bu kishini bashariyat haqidagi g'oyalar bilagt ulg'aytiradigan maktabdir (M. Ye. Saltikov-Shchedrin), Vatan g'oyasi hamma uchun bir xil manfaatlidir. Vatanparvarlik tantanavor xitoblar va umumiy gaplardan iborat emas, balki u vatanga qizgin muhabbat hissi bilan ortiqcha dabdabalarsiz o'z fikrini bildirish, faqat ezgulikda hayratlanmay, balki muqarrar har qaerda, har qanday vatanda ham bo'ladigan yovuzlikni jinidan battar yomon ko'rish demakdir (V. G. Belinskiy).

Shunday qilib, vatanparvarlikni shakllantirish shaxsning sezgilari, kayfiyati, mazmun, g'oyalari, bilimlari, tasavvuri, shaxsiy o'zi mavqeini belgilashini (motivatsiyasi, qobiliyati va irodasi mavjud bo'lganida) o'z ichiga oladi. Bundan shaxsiy darajada vatanparvarlik aniq muhitda, ma'lum hayotiy faoliyatda izchillik bilan shakllanishi: hissiy munosabati, sezgisi, anglab yetishi, tushunchasi va tasavvuri, ongi, dunyoqarashi, xulqi kelib chiqadi. Bu o'rinda vatanparvarlikni ta'lim mazmunida qarash muhim hisoblanadi. Vatanparvarlik faqat hissiy, idrok etish va dunyoqarash komponentlarini emas, balki kommunikativ hamda faol faoliyatli va albatta baynalmilal komponentlarini ham ko'zda tutishini unutmazlik zarur. Haqiqiy vatanparvarlik xalqlar va madaniyatlar o'rtasida o'zaro hurmat va totuvlikka erishishga yo'naltirilgan tuyg'udir.

Mustaqil davlatning milliy mafkurasi, jamiyatning barqaror rivojlanishi asosi hisoblanadi. O'zbekiston aholisi ko'p millatli va ular o'zlarini respublika fuqarolari, uning vatanparvarlari deb tushunishlari muhimdir - davlatning barqarorligi, millatlararo tinchlik va totuvligi mana shundan iborat.

Vatanparvarlik – ko'p millatli mamlakat fuqarolarining vatanparvarliklari, ya'ni u jamiyatni birlashtiruvchi vazifasini bajaradi. Respublikada barcha ta'lim tizimlari orqali davlat ta'lim siyosati yo'naltiruvchi ko'rsatmalari bilan maqsadga muvofiq vatanparvarlik hissi shakllantirilmoqda.

O'zbekiston ta'lim tizimining asosiy vazifasi insoniylikni, Vatanga, milliy madaniyatga muhabbat va sadoqatni tarbiyalash hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan keylib chiqib oliy ta'lim muassasalari talabalarida harbiy vatanparvarlikni tarbiyalash - yangi pedagogik paradigma hisoblanadi. Harbiy vatanparvarlik tarbiyasi - «Vatan» tushunchasini shakllantirish, jonajon o'lkaga, Vatanga, xalqiga, milliy an'analari va odatlariga, boshqa millatlarga hurmat va muhabbatni tarbiyalash; millati, Vataniga g'ururni tarbiyalash; mustaqil O'zbekiston davlatidagi barcha yer usti va yer osti moddiy boyliklarini asrab-avaylash; davlat ramzlari: gimn, gerb, bayroq to'g'risidagi tushunchalarni kengaytirish, har qanday holatda ham ularni ko'z qorachig'iday asrash; O'zbekiston Respublikasi poytaxti - Toshkent to'g'risida tasavvurlarni kengaytirish; O'zbekiston tarixi to'g'risida tasavvurlarga ega bo'lish; mamlakat tarixi barcha boqichlarida xalqi va yerini himoya qilish, saqlash, birlashtirishga intilgan insonlar hayoti va faoliyati bilan tanishish; xalq urushlari, uning qahramonlari to'g'risidagi tushunchalarni shakllantirish; xalq og'zaki ijodi (xalqning jasorati to'g'risida hikoya qiluvchi, kuylovchi dostonlar, afsonalar, qo'shiqlar, vatanparvarlik mazmunidagi ertaklar, hikmatli so'zlar, maqollar va matallardagi xalqning ma'naviy donishmandligi), xalq an'analari va odatlari bilan tanishtirish; o'zbek xalqi tarixiy-madaniy va intellektual merosini bilish; o'zbek yozuvchishoirilari, ma'rifatparvarlarining ijodlarini bilish, O'zbekistonning tasviriy va boshqa san'atlaridan xabardorlikdan iboratdir.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, o'quvchi-yoshlarda harbiy vatanparvarlik tuyg'usini tarbiyalash kelajakda ularni o'z ona yurti, Vatan ravnaqi uchun kurashishga tayyorlashda xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mustaqillik: Izohli, ilmiy-ommabop lug'at, Toshkent, 1998, 34-bet.
2. Ibrohimov A. va boshqalar. Vatan tuyg'usi. Toshkent, 1997, 152-bet.
3. Musurmonova O. Oila ma'naviyati.T., 1999, 120-121 betlar.
4. Mirziyoyev Sh.M. Konstitutsiya – erkin va farovon hayotimiz, mamlakatimizni yanada taraqqiy ettirishning mustahkam poydevoridir // Xalq so'zi. 247 (6741)-soni. – 2017-yil
5. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi –Toshkent, O'zbekiston, 1992-yil
6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-fevral kuni tasdiqlangan 140-son qarori “Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash konsepsiyasi”.